

**TARIXDAN AKS SADO: “TARIXI MUHOJIRON” ASARI HAQIDA.
(ASARDA NODIRA SIYMOSI)**

Nurutdinova Malikaxon Sharabovna

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi

Davlat adabiyot muzeyi tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Barno, Anbar otin, Samar Bonu, Hakima, Mutriba, Muazzam, Nozima kabi buyuk siymolar haqida fikr bildiriladi. Ularning har birini o‘z davrida munosib o‘rni borligi. Adabiyot gulshanida har gulning o‘z ifori bo‘lganidek, bu shoiralarning hayot saboqlaridan iborat ijodlari davr osha kelajak avlod uchun badiiy tafakkur mahsulidir. Ular bilan tanishar ekansiz she’riyatimizning nafosatini yana bir muhim qirralari haqida bilimga ega bo‘lasiz. Tarix- ulug‘ muallim. Maqolada Dilshodning “Tarixi muhajiron” asaridan parchalar keltirilib, asarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mumtoz, Qo‘qon, O‘ratepa, Kalla Minora, Navgand, Bekat, Kurkat, Mahram, dasht, muhajir, tarix, taqdir, shajara, inju, judolik.*

Аннотация: В первой и второй половине XIX века высказывается мнение о таких великих деятелях, как Надира, Увайсий, Махзунा, Дильшод Барно, Анбар атин, Самар Бону, Хакима, Мутриба, Муаззам, Нозима. Каждому из них отведено свое место в свое время. Как каждый цветок имеет свое выражение на клумбе литературы, так и творения этих поэтов, состоящие из жизненных уроков, являются продуктом художественного мышления для будущего поколения. Познакомившись с ними, вы узнаете еще об одном важном аспекте изящества нашей поэзии. История — великий учитель. В статье цитируются отрывки из «Истории Мухаджирана» Дильшода и размышляется о важности произведения.

Ключевые слова: *мумтоз, Кокан, Оратепа, Калла Минора, Навганд, Бекат, Куркат, Махрам, степь, мухаджир, история, судьба, генеалогическое дерево, жемчужина, разделение.*

Abstract: *In the first and second half of the 19th century, an opinion is expressed about such great figures as Nadira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Barno, Anbar atin, Samar Bonu, Hakima, Mutriba, Muazzam, Nozima. Each of them has a proper place in its time. Just as each flower has its own expression in a flower bed of literature, the creations of these poets, consisting of life lessons, are the product of artistic thinking for the future generation. As you get acquainted with them, you will gain knowledge about another important aspect of the elegance of our poetry. History is a great teacher. The article quotes excerpts from Dilshod’s “History of Muhajiran” and reflects on the importance of the work.*

Key words: *mumtoz, Kokan, Oratepa, Kalla Minora, Navgand, Bekat, Kurkat, Mahram, steppe, muhajir, history, destiny, family tree, pearl, divorce.*

Tarix ulug' muallim. Qachonki tarix sahifalarini varaqlar ekanmiz hayratimiz oshib boraveradi. O'zimiz uchun yangi-yangi qirralarini kashf etamiz. O'zbek shoiralari adabiyot ummonidagi injuga o'xshaydi. Tariximizning ulkan qatlarida ularning bizga qoldirgan adabiy merosi qanchalar buyuk ahamiyatga ega ekanligini his qiladi kishi. Sharq adabiyotining XIV-XVII asrlarida bir qator shoiralalar ijod bilan shug'ullanganini ko'rish mumkin. Biroq tan olib aytish kerakki tarixiy sharoit yoki davr muhiti sababmi ularning ko'pi XVIII-XIX asrdagidek adabiyot maydonini zabit etisha olmagan.

XIX asrning birinchi va ikkinchi yarmida Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod Barno, Anbar otin, Samar Bonu, Hakima, Mutriba, Muazzam, Nozima kabi siymolar adabiyot gulshaniga aylandilar. Ularning har birini o'z davrida munosib o'rni bor. Adabiyot gulshanida har gulning o'z ifori bo'lganidek, bu shoiralarning hayot saboqlaridan iborat ijodlari davr osha kelajak avlodga o'zining ma'naviy kuchini ko'rsatib kelmoqda. Bugungi kunda ularning ijodi chuqur o'rganilib, turli xildagi mulohaza va munosabatlarga sabab bo'immoqda. Yosh olimlar tarafidan tahlil etilib, bahas-munozaralarga tortilyapti. Albatta bu quvonarli hol. Shu o'rinda M. Qodirovaning "XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri" asari tadqiqotchi sifatida e'toborimni tortdi. Bu asarni o'qib, juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldim. Unda aynan Dilshod Barnoning "Tarixi muhojiron" asari meni mulohaza yuritishga chorladi.

Dilshod Barno sal kam bir asr yashagan shoiradir. Uning "Tarixi muhojiron" asarini tarix va taqdir shajarasi deb ham aytса bo'ladi. Unda tojik va o'zbek xalqlarining XIX asrda boshidan kechirgan kechirmishlarini real hayot tarzidagi voqeа va hodisalar orqali hikoya qiladi. Bu shoiraning hayot yo'llari haqida ma'lumot beruvchi asardir.

Dilshodning "Tarixi muhojiron" asarida ko'p voqelar reallikka qurilgan. O'sha davrdagi O'ratepa haqida yaratilgan tarix va tazkiralar, masalan: "Tazkirai islomiya", "Tazkirayi muhoriba", "Taskirai Istravshan" kabi boshqa kitoblardan farqli ravishda shoiraning o'z ko'zi bilan ko'rgan va boshidan kechirgan voqealar tasvirlangan.⁶⁵

"Tarixi muhojiron" 1232 hijriy yili Qo'qon hukmdori Umarxonning O'ratepa ustiga yurishi va bu yurishning fojeali oqibatlarini hikoya qilish asosida yaratilgan. Shoira o'quvchining diqqatini mahorat bilan jalg qila olgan. "...Kuz payti, odamlar bog'laridan shaharga qaytib, uy-joylarinining kam-ko'sti bilan mashg'ul edi. Shu vaqt shaharda O'ratepa ustiga Qo'qon xonining yurishi boshlanganligi, sarbozlar shimal, g'arb va janub tomonidan kelib, Kalla Minora mavzeyida shaharning taslim bo'lishini ko'z tutib turganligi" xabari tarqaladi. Shoiraning yozishicha, bu faqat vahima bo'lmay, istelochi dushman tomonidan "goh-goh otilgan to'plarning dahshatli to'lqinlaridan shaharda qo'lansa hidli chang ko'tarilar", "daraxtlarning barglari

⁶⁵ "XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri" Mahbuba Qodirova monografiyasi Toshkent. O'zSSR "Fan" nashriyoti 1977-yil 186 bet. 96-bet

zafarondek sarg‘ayib to‘kilar” edi. Vahima ichida o‘zini yo‘qotib qo‘ygan xalq “o‘tgan aziz -avliyolarning arvohidan madad tilardi”.

Dilshod istilo vaqtida xalq ichidan otilib chiqqan tadbirli, shijoatli shaxslar haqida ham hikoya qiladi. Xon sarbozlari shahardagi talon-tarojdan keyin aholini Chorsu maydoniga yig‘ib, “panohsiz” xalqni dorga osar edi. Shu payt Sarimsoqbek, Kattabek kabi shijoat egalari maydonga chiqib, “shaharga ketma-ket zarba berayotgan Farg‘ona va Buxoro hukmdorlari”ni qoralaydilar. “Diyorim va hamshaharlarimga jon fido” deb maydonga chiqqan bu vatanparvarlarga “yuz qabilasining boshqa beklari hamovoz” bo‘ladilar. Dilshod “men bu yuz beklarining nomini o‘sha qatl maydonida eshitgan edim”, deb xotirlaydi. Shoira aytib o‘tganimizdek asarda hamma vaqt voqealarning real tasviriga e’tibor qiladi. U o‘ratepalik asirlarni Qo‘qonga Navgand, Bekat, Kurkat va Mahram dashtlari orqali haydab ketilganligini eslaydi. “Kamina o‘n yetti yosh shu olomon ichinda yurub qaqqash erdim... Alqissa, Farg‘ona safarida hamma izdihomni qo‘shoq qilib haydag‘on erdilar. Amir lashkari orqasidog‘I tuzon ichinda”⁶⁶ - Shoira yozadi: Farg‘ona amiri Umarxon, o‘zi olim va katta shoir bo‘la turib, bu mazlum shaharni birorta olimi va shoiriga rahm qilmadi, - deb iddao qiladi. Yo‘l yurib sahroyi kabirlardan o‘tib tashnalikga, qiyinchilik bilan asir bo‘lib, xon xaramiga keltiriladi. Bu voqea shoiraning umrini oxirigacha esidan chiqmaydi. O‘zining she’larida barcha boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklarini ifoda etadi.

Shu tariqa Farg‘onaga kelib umrini oxirigacha shu yerda ijod bilan mashg‘ul bo‘ladi. “Tarixi muhojiron”da keltirilishicha shoira shoh bilan uchrashuvi haqida keskin fikrlar bildiradi. Dilshodning shoiralik qobiliyatidan xabar topgan xon xontaxta ustidan bir anorni olib shuni tasvirlab she’r aytishini so‘raydi:

*Bu tuban falak gumbazi ostida,
Ichi to‘la hammani g‘amli ko‘rdim.
Harirdan yuzlariga parda tortilgan,
Yuragi qon, ko‘zlarini namli ko‘rdim.
Umarxon hukmining zulmi tagida,
Har bir nozaninning yuragini chok ko‘rdim.*

Bu uchrashuvda Dilshod xonga nisbatan nafratini namoyish qiladi. Javobning keskinligi albatta xonga yoqmaydi, uni zindonband qilishini aytadi. Ammo o‘ratepalik bo‘lgan xon xizmatchisi Dilshodga shafqat qiladi. Uni o‘rdadan chiqarib yuboradi. Shu tariqa Dilshod omon qoladi. Dilshod bo‘lib o‘tgan voqealarga ham tarixchi, ham yozuvchi nazari bilan qaraydi. U o‘zining taqdirida minglab o‘ratepalik qiz-juvonlar taqdirini ko‘radi.

“Tarixi muhojiron”da Qo‘qon va O‘ratepaning XIX asr adabiy hayoti va uning dilkash odamlari, xususan, shoiralari haqida ham diqqatga loyiq ma’lumotlar bor.⁶⁷

⁶⁶ Dilshod Tanlangan asarlar 12-bet

⁶⁷ “XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” Mahbuba Qodirova monografiyasi Toshkent. O‘zSSR “Fan” nashriyoti 1977-yil 186 bet. 100-bet

Dilshod Qo‘qonda yashab ijod etgan 12 shoir va 12 shoiralar bo‘lganligini bayon etadi. Muntazir, Gulxaniy, Maxzaniy, Uvaysiy, Sadoiy Nuriy, Nodira, Mahzuna, Bahriniso, Mehinbonu, Anbar otin va boshqalar. Uning 91 ta o‘zbekcha va 51 ta tojikcha she’ri “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi) badiiy-tarixiy asarining o‘zbekcha va tojikcha 3 qo‘lyozma nusxasi (“Tazkirai Barno”, “Sabot al-bashar maa tarixi muhojiron”, “Inson matonati va muhojirlar tarixi”, “Muntaxab al-ash’ori Barno”, “Barnoning tanlangan she’rlari” bizgacha yetib kelgan. Bularda o‘zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti va boshqa ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘z ifodasini topgan.⁶⁸

Dilshod Barnoga Nodira bilan yuz ko‘rishish nasib etmagan bo‘lsa ham Nodira ijodi bilan tanish bo‘lgan.(O‘rdadan chiqqach, ikki yil keyin fahm etdimki, u yerda Farg‘ona mulkining malikasi, she’riyat va tarona shavq-zavqining sohibasi, ya’ni davr Nodirasi va Zamonaning mashhur shoirasi hayot ekanlar, ko‘rishga harakat qildim, ammo muyassar bo‘lmadi) - deb eslaydi. Dilshod Nodira siyimosini xayolan tasavvur etib, unga maxsus g‘azal yozadi:

Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh,

She’riyat tojini kiygan podshoh.

-Kim?-dedim,-Nodira -dedilar ani,

Yonida Vaysiy turur olampanoh.

Har biri ming shoira o‘rnidadur,

Ikavi birla to‘lur har borgoh.

Dilshod Nodirani ta’riflashda yangicha tasvirlar qidiradi:

Nodira falakning oyi, jahonning intizomi,

Malaklar shohiyu Mulku Makoni edi.

Ilm, adab, nazm osmonida,

Nur sochuvchi yulduz edi.

Navoiy shoirlar davrasining olimi,

Nodira uning g‘azalxon oshig‘I edi.

Dilshod ijodidan shuni anglash kerakki, o‘sha davrda yashagan shoiralar, olim va fuzalolar faoliyatiga ham ko‘p jihatidan to‘g‘ri baho bera olgan. Dilshod 80-yil Qo‘qonda o‘zbeklar orasida yashadi. Ijodida ikki xalqni birday sevib tarannum etdi.

Tarix ulug‘ muallim. Tarix bu ajdodlarimizning murakkab va oddiy o‘tmishi, kechmishi. Ammo uning qarida qancha sirlar borligi faqat yaratgangagini ayon. Maqsadimiz tarixda yashab ijod etgan olovqalb shoiraning ruhlarini shod aylab, taqdiri va asarlarini yana bir bor esga solish edi. Qanchalik murodimiz hosil bo‘ldi buni Yaratganning o‘zi bilguvchidir.

⁶⁸ O‘zbekistonning ma’rifatparvar ayollari. I-jild O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi Toshkent – 2021.32-bet

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“XIX asr o‘zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri” Mahbuba Qodirova monografiyasi Toshkent. O‘zSSR “Fan” nashriyoti 1977-yil 186 bet.
2. O‘zbekistonning ma’rifatparvar ayollari. I-jild O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi Toshkent – 2021.32-bet
3. Dilshod Tanlangan asarlar 12-bet